

**О'QUVCHILARNING NUTQINI O`STIRISHDA MULOQOT USULIDAN
FOYDALANISH**

Hakimova Marjona Iskandarzoda

O`zbekiston-Finlandiya pedagogika Instituti

Boshlang`ich ta`lim va gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarning nutqini o`stirish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta`sirchan bo`ladi, bola faoliyati davomida nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixologik rivojlanish ustuni hisoblanadi. O`quvchilarning nutqini o`stirishda muloqot asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Ushbu maqolda shu haqida qisqacha keltirib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *Nutq, nutq o`stirish texnologiyalari, muloqot, kommunikativlik.*

**USE OF THE COMMUNICATION METHOD IN DEVELOPING STUDENTS`
SPEECH**

Annotation: *The technologies for developing students` speech in primary grades are different becomes important. Because a good speech has an understandable effect, the child corrects his speech in the process. Speech development material child the familiarization side of the environment, but also the overall user experience about. Communication occupies one of the main places in the development of students` speech. This is briefly mentioned in three proverbs.*

Key words: *Speech, speech development technologies, communication, communicativeness.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ
УЧАЩИХСЯ**

Аннотация: *Технологии развития речи учащихся в начальных классах различны. становится важным. Потому что хорошо развитая речь понятна и впечатляюща,*

ребенок корректирует свою речь во время занятий. Речевое развитие – дело не только ребенка аспект приобщения к окружающему, но и опора общего психологического развития. Считается Общение занимает одно из главных мест в развитии речи учащихся. В этой статье об этом кратко упоминается.

Ключевые слова: *Речь, технологии развития речи, общение, коммуникативность.*

O`zbek tiliga davlat maqomining berilishi maktabda ona tilini o`qitish bilan bog`liq ishlarni qaytadan ko`rib chiqish, zamon talabiga to`liq javob beradigan ta`lim tizimini taqozo etmoqda. Bu ishni amalga oshirish yuzasidan turli fikrlar aytilmoqda. Til ta`limining mazmunini qayta ko`rib chiqish haqida gap ketganida, aksariyat hollarda nutq amaliyotiga e`tiborni kuchaytirish zarurligi ta`kidlanmoqda. Vaholanki, uzoq yillardan beri maktablarda amalga oshirib kelingan ta`lim tizimida asosiy e`tibor o`quvchilarga til haqidagi nazariy bilimlarni singdirishga qaratilgan edi. Shu sababli, darslarda nutq amaliyotini muntazam o`qitishni tashkil etish juda ko`p muammolarni hal qilishni taqozo qiladi. Bunday muammolar qatoriga, birinchidan, nutq amaliyotini ko`zda tutuvchi dastur, darslik va qo`llanmalarini yaratish, ikkinchidan, o`qituvchilarni til ta`limi sohasidagi zamonaviy usullar bilan tanishtirish kiradi.

Bolaning nutqining paydo bo`lishi va rivojlanishini o`rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o`z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o`ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma`lumot olishni o`rganadi. Boshlang`ich ta`lim yoshdagi og`zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o`qitish uchun asos yaratadi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya`ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o`sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo`lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan paydo bo`ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to`g`ri gapirishga (so`zlashishga) o`rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya`ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo`ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko`pgina tajribalar shuni ko`rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to`liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, pedagog har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu boshlang`ich ta`lim yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko`maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o`rgatish bilan bir vaqtda, uni maktabda muvaffaqiyatli o`qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o`rgatiladi. So`z boyligi barcha mashg`ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o`zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu o`z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo`l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o`rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir. Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg`ularni o`stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo`lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir.

Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqeа va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o`xshash va farqli tomonlarini aytishga o`rganadi. Ona tili orqali bolalar o`z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og`zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, san`at bilan tanishadilar.

Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo`lishlariga, tabiiy ohangda gapirishlariga, so`zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, qo`llari va yuz mimikalarini bamaylixotir holatda tutib turishlariga e`tibor berilishi kerak. 5 - 6 - 7 yoshli bolalarda lug`at boyligi 2500-3500 tagacha so`zlarni tushunishi va bilishi kerak, aks holda albatta mutahassis bilan maslahatlashish lozim bo`ladi. Bolalarni nutqi va aqlini rivojlantirishda hikoya, ertaklar juda foydali. Ularga ertak o`qib berilganda fikrlash qobilyatini ham o`stirgan bo`lamiz.

Ma`lumki, insonning barcha sohalardagi faoliyatini yuzaga kelishida moddiy va ma`naviy ehtiyojlar asosiy omil bo`lib xizmat qiladi. Ana shunday ehtiyojlar insonni ma`lum yo`nalishda ongli ravishda harakat qilishga undaydi. Ko`pchilik hollarda bunday faoliyatdandan ko`zda tutilgan maqsadni to`liq amalga oshirish uchun boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish zarurati tug`uladi. Mana shunday vaziyatlarda inson til, imo-ishora, yuz ifodasi, qo`l harakatlari va muayyan ramziy belgilar vositasida boshqa odamlar bilan aloqa o`rnatadi. Til vositasida amalga oshiriladigan nutq faoliyatining asosiy maqsadi turli vaziyatlarda odamlar o`rtasida yuzaga keladigan muloqotni ta`minlashdir.

Nutq faoliyatini to`g`ri yo`lga qo`yishning eng muhim shartlaridan biri darsda muloqot muhitini yaratishdir. Bunday muhitning yuzaga kelishi ko`p jihatdan o`quvchining o`qituvchiga va sinfdoshlariga qanday munosabatda bo`lishiga bog`liq. Nutq o`stirishga mo`ljallangan an`anaviy usullarni tahlil qilish chog`ida ko`rsatib o`tilganidek, o`quvchining faoliyati berilgan topshiriqlarni bajarish bilan cheklanganligi uchun u o`zini erkin tuta olmaydi. Tabiiyki, bunday holatda o`quvchi o`qituvchiga o`z hamsuhbati sifatida munosabatda bo`la olmaydi. Zero, o`quvchi faqat o`qituvchi taklif qilgan ishni bajarish, uning rejasiga to`g`ri keladigan gapni gapirishi yoki yozishi mumkin. Bundan tashqari, o`quvchi har qanday ishni bajarish chog`ida, shu jumladan, nutq mashqlari jarayonida ham o`qituvchining asosiy maqsadi muloqotga kirishish emas, balki o`quvchilarni nazorat qilish, baho qo`yish ekanligini his qilib turadi.

Muloqot usulini ona tili darsining barcha bosqichlarida qo`llash mumkin. Shu usul asosida o`tkaziladigan darsda yangi mavzuni tushuntirish va uni mustahkamlash uchun mo`ljallangan ishlarni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

1. O`quvchilarni biror mavzu bo`yicha muloqotga jalb qilish.
2. O`tkazilgan muloqotning mazmunini tahlil qilish.
3. O`quvchilarning diqqatini muloqot jarayonida fikrlarni bayon qilish uchun qo`llangan til vositalariga qaratish, shu vositalarning xususiyatlarini tushuntirish.

4. Yangi o`zlashtirilgan til vositalarini ko`zda tutgan holda o`quvchilarning nutqni takomillashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarish.

5. O`quvchilarni jonli muloqotga tortib, ular bilan birgalikda biror hayotiy muammoni hal qilish.

Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichida muloqot usulini qo`llash haqida gap ketganda shuni aytib o`tish kerakki, amaldagi dasturda ko`zda tutilgan har bir mavzu mazkur usulni o`ziga xos ko`rinishda joriy etishni talab qiladi. Bundan kelib chiqadiki, muloqot usuli darslarda turli ko`rinishlarda qo`llanishi mumkin. Ammo bu usul qanday shaklga ega bo`lishidan qat`iy nazar uni qo`llashda quyidagi talablarni hisobga olish lozim:

1. Yangi mavzuni bayon qilishdan oldin o`quvchilarning bevosita muloqotga ishtirok etishlari yoki boshqalarning nutq faoliyatini kuzatishlari uchun imkoniyat yaratish.

2. Dars mavzusida ko`zda tutilgan til vositalarining nutq mazmuni bilan chambarchas bog`langan holda o`zlashtirilishini ta`minlash.

3. O`quvchilarni har bir Grammatik shakl va usulning qanday muloqot ehtiyojlari uchun zarurligini tushunib olishlariga yordam berish.

Shunday qilib, muloqot usuli o`quvchilarga til vositalari haqida tushunchalarni singdirishda muayyan nutq faoliyatining mazmunini ko`zda tutishni taqozo etadi, o`quvchilarni yangi mavzuni o`rganishning eng birinchi bosqichidan boshlab bevosita nutq faoliyatiga jalb qilishni ta`minlaydi.

Bolalardagi ko`plab nutqiy muloqot va ko`nikmalar mashg`ulotlardan tashqarida shakllanadi. Boshlang`ich sinflarda bolalarning kattalar bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro`y beradi. Mehnat jarayonida – xo`jalik-maishiy, qo`l va qishloq xo`jaligi mehnatida bolalarning lug`at bilish darajasi boyiydi, aniqlashadi va faollashadi. O`yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug`at, mashg`ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O`yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug`atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang`ich sinf yoshidagi bolalarni nutqiy tarbiyalash uchta o`zaro bir-biri bilan bog`liq sohani tashkil etadi. Bular:

- Atrofni o`rab turgan olamdagি hodisalarni (real voqelikni) anglash va so`z bilan belgilash;

- Atrofdagilar bilan aloqalarni va nutqiy munosabatlarni yo`lga qo`yish;

- Tilni (uning ovoz tarkibini, lug`atni, Grammatik qurilishini) oddiy anglash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhiddinov A. G` . O`quv jarayonida nutq faoliyati: (Ona tili va adabiyot o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma). – T . :O`qituvchi 1995. – 80 b.

2. D.R. Babayeva. Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.

3. Asqarxo`jayeva M. Bog`chalarda o`zbek tilini o`rganish. Bolalar bog`chalari ta`biyachilari uchun metodik qo`llanma. Toshkent: 2010.

4. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA`LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING O`RNI //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 7. - C. 969-974.